

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ARZIQULOVA XURSHIDA AKBARALIYEVNA

**XVII ASR FRANSUZ DRAMATURGIYASINING JANR XUSUSIYATLARI
(Kornel va Rasin ijodi misolida)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Science**

Arziqulova Xurshida Akbaraliyevna

XVII asr fransuz dramaturgiyasining janr xususiyatlari (Kornel va Rasin ijodi
misolida) 3

Арзикулова Хуршида Акбаралиевна

Жанровые особенности французской драматургии XVII века (на примере
произведений Корнеля и Расина) 27

Arzikulova Khurshida Akbaraliyevna

Genre features of the French drama of the XVII century (on the example of the
works Cornel and Racine) 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ARZIQULOVA XURSHIDA AKBARALIYEVNA

**XVII ASR FRANSUZ DRAMATURGIYASINING JANR XUSUSIYATLARI
(Kornel va Rasin ijodi misolida)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.02.PhD/Fil823 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdhti.uz hamda "ZiyoNet" axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qarshibayeva Uljan Davirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayeva Malohat Muhammadovna
filologiya fanlari doktori, professor

Fayzullayeva Umida Ilhomovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 28 noyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 85A-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz. Samarqand davlat chet tillar instituti bosh binosi).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 21596 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "15" noyabr kuni tarqatildi.
(2023-yil "14" noyabr dagi № 87 raqamli reyestr bayonnomasi)



I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi pedagogika fanlari doktori, professor

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi filologiya fanlari doktori, dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida XVI asr oxiri XVII asr adabiyotida klassisizm va barokko yoʻnalishi qoidalari uygʻunligi taʼsirida dramaturgiya janrida koʻplab asarlar paydo boʻladi. Ularning badiiy adabiyotdagi oʻrni, kelib chiqish xususiyatlariga xos jihatlari alohida oʻrganila boshlandi. Klassisizm yoʻnalishidagi dramaturgiya janrida yozilgan tragediya, komediya, tragikomediyalarning oʻziga xos boʻlgan xususiyatlari tadqiqiga qiziqish yanada kuchaydi. Badiiy anʼanalarga sodiq qolish yoki ularni yangi davr talabi asosida oʻzgartirish masalasi har bir tadqiqotchi, ijodkor oldiga qoʻyiladigan yetakchi, ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan, badiiy adabiyot kontekstida klassisizm davri dramaturgiyasini oʻzlashtirish mutanosibligi, badiiy adabiyot rivojining turli bosqichlarida turlicha ifodalanishi, uning tarbiyaviy, maʼnaviy va falsafiy harakterini belgilashga imkon yaratadi.

Dunyo xalqlari orasida yetakchi oʻrinlarning birini egallovchi XVII asr fransuz dramaturgiyasi va uning mashhur adiblari ijodi adabiyotshunoslar eʼtiborini tortmoqda. Klassisizm davri adabiyotining dastlabki dramaturgiya janrida yozilgan asarlarida yuqori tabaqa, yaʼni hokimiyat tepasidagilarning maʼnaviy yemirilishi, uning vakillarini axloqiy tubanligi aks etgani, keyinchalik yaratilgan asarlarida esa qahramonlar xalqparvarligi turlicha badiiy talqin etilganligi sababli, ushbu adabiyotni oʻrganish va bu borada tadqiqotlar olib borish zarurati paydo boʻlmoqda. Tadqiqotchilar, adabiyotshunoslar klassisizm davri adabiyotidagi dramaturgiyaning janr xususiyatlari tragediya, komediya va tragikomediya koʻrinishlarining oʻziga xos jihatlari aniqlash ushbu sohadagi uslubiy yangilanishlar mohiyatini tadqiq qilish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida “Adabiyot va sanʼatga, madaniyatga eʼtibor – bu, avvalo, xalqimizga eʼtibor, kelajagimizga eʼtibor”¹ darajasida yuksalib, milliy adabiyotimizda jahon adabiyoti badiiy tajribalari bilan boʻylasha oladigan asarlar tahlili va tadqiqiga katta ahamiyat berila boshlandi. Ularga xos mushtarak va individual jihatlarni yoritishga qiziqish kuchaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda jahon va milliy adabiyotimizda badiiy asarlarning janr xususiyatlari alohida eʼtiborni tortadi. Ularning maxsus davrlarga xos janrlarini tizim sifatida oʻrganish esa badiiy asar syujeti masalasining nazariy asoslari haqidagi tushunchalarni boyitishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Taʼlim

¹ Mirziyoyev Sh. Adabiyot va sanʼat, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz maʼnaviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq soʻzi. – Toshkent, 2017. – 4 avgust.

muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida XVII asr fransuz klassisizm davri adabiyotini, fransuz dramaturgiyasini, barokko an'analarini, Kornel va Rasin hayoti va ijodini, ular asarlari qahramonlarining Vatanga sadoqatini, asarlari makoni va zamonini, ular ijodining keyingi avlod ijodkorlariga ta'siri masalalarini: chet el olimlaridan² G. Lanson, L. Lemetr, L. Goldman, F. Eljendinjer, R. Pikar, P. Kruzelar ishlarida tadqiq qilingan. Rus olimlaridan³ V.R.Grib, S.S.Mokulskiy, D.D.Oblomievskiy, V.S.Kadishev, N. A. Jirmunskoy, B. A. Krjevskiy, N.A. Sigal, Yu.B. Pavlovskoy, E. I. Gorfunkel, B. I. Purisheva, M.Oganis'yan, V. Frichelarning ishlarida rus an'analarida Rasin g'oyalari, xarakter yaratish uslublari hamda fojialarini bosqichma-bosqich evolyutsiyasi, dramaturglarning XVII asr kontekstidagi novatorligi va Kornel ijodi tanqidiy nuqtainazardan o'rganilgan. Shuningdek, klassisizm asri axloqiy va tarixan yaxlit bo'lmagan davr sifatida D.D.Oblomievskiy "Fransuz klassisizmi" nomli monografiyada Rasin ijodining dinamikasi, uning obrazlari evolyutsiyasi, "salbiy" yoki "ijobiy" qahramonlarning paydo bo'lishi va tasvirlanishi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan. O'zbek olimlaridan⁴ M.N.Xolbekov, S.J. Jabbarovlarning ishlarida qisman XVII asr Evropa adabiyoti o'rganilganini va Sh.

² Lanson G. Histoire de la littérature française. / G. Lanson. - P.: Librairie. Hachette, 1912. - 1204 p.; Lemaitre, L. J. Racine. / J. Lemaitre. - P., 1912. - 143 p.; Goldman, L. Le Dieu caché. Etude sur la vision tragique dans les «Pensées» de Pascal dans le théâtre de Racine / L. Goldman - P.: Gallimard, 1955. - 454 p.; Elgendinger F. La mythologie salaire dans l'oeuvre de Racine / F. G. Elgendinger. - Neuchatel: Faculté des lettres, 1970. - 156 p.; Picard, R. Racine polémiste / R. Picard. - P.: Pauvert., 1967. - 169 p.; Crouzet, P. Tout Racine ici, à Port-Royal / P. Crouzet -P.: Flammarion, 1974.- 64 p.

³Гриб, В.Р. Расин / Гриб В. Р. Избранные работы. - Л.: Художественная литература, 1956. - 416 с.; Мокульский С.С. Расин к 300-летию со дня рождения / С.С. Мокульский - М., 1940. - 107 с.; Обломиевский, Д. Д. Французский классицизм / Д. Д. Обломиевский -Л.: Наука, 1977. - 374 с.; Кадышев, В. С. Расин / В. С. Кадышев - М.; Наука, 1990. - 226 с.; Жирмунская Н. А. Трагедии Жана Расина // Расин Ж. Трагедии / Литературные памятники. - Новосибирск, 1977. - 428 с.; Кржевский Б. А. Театр Корнеля и Расина //Статьи о зарубежной литературе. - М.-Л., 1960.; Сигал Н. А. Из истории русских переводов «Федры» Расина //Русско-европейские литературные связи. - М.-Л., 1966.; Павловская Ю. Б. Героини Ж. Расина: трагический характер как диада: Дисс. канд. фил. наук. - М., 2000.; Горфункель Е. И. Поздние трагедии Расина: Дисс. канд. фил. наук. -Л., 1977.; Пуришев Б. И. Хрестоматия по западноевропейской литературе. Для ВУЗов. Литература XVII века. - М., 1949.; Оганисьян М. Философско-эстетические принципы трагедии Кальдерона и Расина: Автореф. дисс. ... канд. фил. наук.- Москва, 1988.; Фриче В. Очерк по истории западноевропейской литературы. - М., 1908.

⁴М. Холбеков. Инглиз уйғониш даври драматургияси: Уильям Шекспир // "Жаҳон адабиёти". – Т., 2014 йил, 5-сон.; Холбеков М. N. Shakespeare. – Tashkent: Fan, 2010. – 78 p.; Жабборов С. И.В.Гётенинг – Фарбу Шарк девонини Матн.Талкин.Таржима: Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореферати. – Тошкент, 1995. –18 б.; Ҳасанов Ш.А. Ўзбек драматик достони: Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореферати. – Самарқанд, 1995. – 21 б.

Hasanovning dissertatsiya ishida o‘zbek dramatik dostoni tadqiq qilinganini ko‘rishimiz mumkin.

XVII asr fransuz dramaturgiyasining aynan janr xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmaganligi sababli, alohida tadqiqot sifatida o‘rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining «Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari» ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XVII asr fransuz dramaturgiyasi janr xususiyatlarini Kornelning “Sid”, “Gorasiy” va Rasinning “Fedra”, “Andromaxa” asarlarini tadqiq qilish orqali kengroq yortishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XVII asr fransuz dramaturglari adabiyotdagi yirik oqimlardan bo‘lgan klassisizm va barokko an‘analari “uch birlik” bir voqea, bir makon va zamon qoidalariga tayangan holda pyesalar yaratganligini asoslash;

fransuz dramaturglari Kornel va Rasin asarlari tragediya va tragikomediya janrlarida yozilgani, pyesalari qahramonlarining vatan oldidagi burchi va muhabbatga sadoqati qirol tanloviga bog‘liqligini qahramonlar taqdiri orqali aniqlash;

fransuz klassisizm adabiyotida dramaturgiya janrining xususiyatlari, Kornel ijodidagi “Sid”, “Gorasiy” asarlarida tragediyaning yuqori darajaga ko‘tarilishi, uning ijodi tragikomediya an‘analariga xosligini dalillash;

Rasinning “Fedra”, “Andromaxa” asarlarida antik an‘analar bilan tragediya janrida klassisizm va barokko an‘analari davom etishini personajlar hayotida burch va muhabbatga bo‘lgan sadoqati timsolida aniqlash.

Tadqiqotning ob‘yekti sifatida Kornelning “Sid”, “Gorasiy” va Rasinning “Fedra”, “Andromaxa” asarlari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini XVII asr klassisizm adabiyoti dramaturgiyasidagi tragediya, komediya va tragikomediya janrlarining o‘ziga xos xususiyatlarini adabiy jarayonga ta’siri, o‘rni va muammosini o‘rganishni tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lingvopoetik, germeneytik, qiyosiy, biografik va badiiy matn tahlili usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XVII asr fransuz dramaturglari klassisizm yo‘nalishida ijod qilgani va dramaturgiya janrida yaratilgan Kornelning “Sid” tragikomediyasi “uch birlik” qoidalaridan chetga chiqqanligi asoslangan;

XVII asr fransuz dramaturgiyasining tragediya, komediya va tragikomediya janrlarining o‘ziga xos xususiyatlari Kornel va Rasin asarlari qahramonlari taqdiri orqali ochib berilgan;

fransuz klassisizm adabiyotida dramaturgiya janrining xususiyatlari, Kornelning “Sid” va “Gorasiy” asarlarida tragediyaning yuqori darajaga ko‘tarilishi, “Sid” asaridagi bosh qahramonlari hayotining baxtli yakuni tragikomediya an‘analariga xosligi Rodrigo va Ximena taqdiri asosida dalillangan;

Rasinning “Fedra”, “Andromaxa” asarlarida antik an’analar bilan tragediya janridagi klassisizm va barokko an’analari davom etishi, klassisizm janrida yaratilgan asarlarda qirol obrazini to’liq ochib berish qoidalarga zid ekanligi “Andromaxa” tragediyasi qahramoni Pirr obrazida aks etgani aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

adabiyotshunoslikda ilk marta XVII asr fransuz klassisizm davri adabiyotining janr xususiyatlari Kornel va Rasin dramaturgiyasi nuqtai nazaridan o’rganilgan;

o’zbek adabiyotshunosligining metodologik bazasi fransuz klassisizm adabiyoti dramaturgiyasi misolida tragediya va tragikomediya janrlariga oid materiallar bilan boyitilgan;

fransuz adabiyotida dramaturgiya rivojlanishida tragediya va tragikomediya janrining ta’siri o’rganilgan. Unga ko’ra, XVII asr fransuz dramaturgiyasi janrlarining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilgan;

Kornel va Rasin dramaturgiyasining o’ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Yozuvchilar ijodidagi pyesalar yaratishda yangicha yondashuvlar o’rganilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi XVII asr fransuz dramaturgiyasi vakillari P.Kornel, J.Rasin va ularning zamondoshlari bo’lgan atoqli adib va tanqidchilarning fikrlariga murojaat qilinganligi; asl (fransuz tilida) matnlardan dissertatsiyada foydalanilganligi va asliyat manbaalarini izohlarda ko’rsatilganligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbaalarga asoslanganligi, tanlab olingan badiiy matnlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, ilmiy xulosa va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, keltirilgan dalillar Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to’plamlari, OAK ro’yxatidagi maxsus va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligida namoyon bo’ladi .

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u adabiyotshunoslikda yuzaga kelgan klassisizm davri dramaturgiyasini o’rganishni, shuningdek, o’sha davr hayotida yuz berayotgan voqealarga befarq munosabati insonlarning jamiyatdagi o’zgarishlarga ta’sir etayotganini isbotlashda foydalaniladi. XVII asr fransuz adabiyotida yaratilgan asarlarning ushbu yo’nalish xususiyatlarini o’rgangan holda tragediya, komediya va tragikomediya janrida yaratilgan asarlarning o’ziga xos jihatlarini, personajlar holatlarini aniqlash, badiiy asar tahlili va talqini, antik qahramonlar imkoniyatlarini belgilash borasida aynan fransuz dramaturgiyasi xususiyatlarini ko’rsatish uchun ilmiy manbaa sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan respublika oliy o’quv yurtlarida «Tili o’rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti tarixi», «Jahon adabiyoti», «Adabiy aloqalar», «Zamonaviy xorijiy adabiyot» fanlari bo’yicha darslik, o’quv qo’llanma, o’quv-uslubiy qo’llanmalar yaratishda, ma’ruza va seminar mashg’ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda, fransuz tili va adabiyoti yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalar hamda o’qituvchilar uchun klassisizm davri

adabiyotining dramaturgiya janri tarixidan maxsus kurslar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XVII asr fransuz dramaturgiyasining janr xususiyatlari va vazifalarini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

fransuz dramaturgiyasining tragediya va tragikomediya janrida yozilgan asarlar qahramonlarining jamiyat va oila oldidagi burchi masalasiga doir adabiy-badiiy tahliliga oid xulosalar, taklif va tavsiyalardan Yevropa ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018 yillarga mo'ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 15-iyundagi №1762/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada Yevropa adabiyotiga, aynan fransuz dramaturgiyasiga bo'lgan qiziqishning oshishi oliy ta'limda o'rganilishiga ahamiyat qaratishga yordam bergan;

XVII asr fransuz dramaturgiyasining janr xususiyatlarini Kornel va Rasin dramaturgiyasi tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsiyadan olingan xulosalardan Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan 2018-2020-yillarda amalga oshirilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 15-iyundagi №1762/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va fransuz adiblari asarlarining janr xususiyatlarini chuqur o'rganilishiga asos bo'lganligi va ularni o'quv jarayoniga tadbiiq qilish lozimligiga erishildi;

fransuz adabiyoti ixlosmandlari uchun adabiy tur va janr xususiyatlarini o'zida mujassam etgan dissertatsiya ishiga oid xulosalardan Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi adabiyot sohasidagi madaniy aloqalar dasturida foydalanilgan ("Alliance Française"ning 2022-yil 16-iyundagi №19-son ma'lumotnomasi). Natijada XVII asr fransuz dramaturgiyasi janr xususiyatlarini alohida mavzu sifatida o'rganish imkoniyati yaratilgan va jahon adabiyotidagi badiiy talqiniga xos xususiyatlar haqidagi ilmiy tasavvur va tushunchalarni boyitishga yordam bergan;

XVII asr fransuz klassisizm davri adabiyoti Kornel va Rasin dramaturgiyasi nuqtai nazaridan o'rganilgan dissertatsiya ishining xulosalaridan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 12-mart kuni namoyish etilgan "Maxsus reportaj" ko'rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil oktyabrdagi №09-01/307-son ma'lumotnomasi). Natijada buyuk fransuz dramaturglari Kornel va Rasin ijodini o'rganish orqali antik va klassisizm davri adabiyoti tadqiq qilingan ushbu ishda ilgari surilgan muhim ilmiy ma'rifiy ahamiyatga ega tavsiyalaridan keyingi ko'rsatuvlarda ham foydalanish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish nashr qilingan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola. 2 ta xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 122 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlangan. Respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ta'kidlangan, ishonchliligi, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“XVII asr Yevropa adabiyotida klassisizm davri dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan bo'lib, unda XVII asr klassisizm davri adabiyotida fransuz dramaturgiyasining o'rni, XVII asr barokko adabiyotida dramaturgiyaning o'rni hamda Kornel va Rasin dramaturgiyasining jahon adabiyotshunosligida o'rganilishi tadqiq qilingan. Klassisizm o'tgan asrlarning muhim san'at yo'nalishlaridan biri sanaladi. Asrlar davomida klassisizm ko'plab avlod vakillari ijod namunalarida o'z aksini topgan. Kornel, Rasin, Milton, Volter, Mari-Jozef Shenye tragediyasi, Molyer komediyasi, Lyull musiqasi, Malerb, Lafonten, Opis, Fleminga she'riyati, Versal hiyoboni va qurilish majmualari hamda Pussen yaratgan kartinalari insoniyatning badiiy rivojida chuqur iz qoldirgan. XVII asrda klassisizm yo'nalishi shoirlar va yozuvchilar, rassomlar va musiqachilar, me'morlar, haykaltaroshlar va aktyorlar guruhlarini dunyoga tanitdi.

Hech bir tortishuvlarsiz klassisizm bir-biriga aynan o'xshash vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Har qanday holatlarda ham isonga xos madaniyat, uning hududiga bog'liq ravishda rivojlanadi. Klassisizmning uch asr davomida har xil davlatlarda Italiya, Angliya, Fransiya va Germaniya adabiyoti va san'atida o'z aksini topgani va yuqori cho'qqilarga erishganini ko'rish mumkin. Klassisizm turli davlatlarda turlicha aks etgan, ularning milliy o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'sib borgan⁵.

Molyer fransuz klassik komediyasini fransuz xalq an'analari bilan Rim komediyalarining eng yaxshi namunalarini tanqidiy o'zlashtirish asosida yaratdi. Dramaturgiyaga qadam qo'ygan Molyer hukmron klassisizm estetikasi prinsiplari asosida yozishga kirishgan bo'lsa ham, lekin u saroy adabiyoti qoidalariga o'ralashib qolmadi. Molyer klassisizmning tragediyani “yuqori”, komediyani esa “tuban” janr deb ko'rsatishlariga qarshi chiqadi. Tragediyaga nisbatan yaxshi

⁵ Литературные манифесты западноевропейских классицистов. Под ред. Н. П. Козловой. - М.: Изд-во Моск. ун-та, 1980. - С. 5.

komediyaning yaratish qiyinligi, kishilarni kuldiradigan va ular didiga yoqadigan komediya yozish oson ish emasligini ta'kidlab ko'rsatadi. U teatrning tarbiyaviy roliga ham katta ahamiyat beradi. Uni "jamiyat oynasi" deb ataydi. Molyerning ko'rsatishicha, "komediyaning vazifasi kishilarni kuldirib turib, ulardagi nuqsonlarni tuzatishdan iboratdir"⁶.

Barokko she'riyatidan tashqari, Fransiyada barokko dramaturgiyasi ham rivojlanib bormoqda edi. Barokko teatrida A. Ardi ijodidagi tragikomediya janrining dinamik harakatlar bilan to'raligi, mizanssen sahnasining samaradorligi, syujetlarning murakkabligi va boshqa o'ziga xos xususiyatlarida aniq ko'rinadi. Biroq, fransuz barokko dramaturgiyasi klassisizm dramaturgiyasiga qaraganda kamroq badiiy ahamiyatga ega. Ayniqsa badiiy adabiyot sohasidagi aynan romanda vaziyat boshqacha. Bu yerda, birinchi davr fransuz adabiyoti rivojlanishi, albatta, yana shu davrda barokko va uning "yuqori" va "pastki" demokratik varianti hukmronligi, hamda bir xilda, bir vaqtning o'zida antinomik barokko romanining tizimi shakllanadi. XVII asrda ushbu janrning shakllanishida, dunyo sivilizatsiyasini rivojlantirishda O. d'Yurfening "Astreya" nomli pastoral sevgi-psixologik romani juda muhim rol o'ynadi. Antologiyada bu keng asarning kichik, ammo muhim parchasini o'qib, bu haqda fikr olish mumkin, lekin qo'shimcha adabiyot bu roman haqida aniqroq ma'lumot beradi. Ta'kidlash lozimki, darsliklarda bu romanning juda "nozik" jihatlari to'liq ochilmagan. "Astreya"ning presioz madaniyati va adabiyotga ta'siri juda muhim ekanligiga qaramasdan, d'Yurfe romanining poetikasi manneristik va barokko tamoyillarining murakkab boshlanmalarini bir-biriga aralashishidan iborat bo'lib, ikkinchisining aniq ustunligini namoyon qiladi. D'Yurfe romani o'ziga xos "tarixiylik" va ensiklopedizmni birlashtiradi. Postaral Galliyning ulug'vor dunyosi, postaral hamjihatligi, postaral poetikasi hamda jamiyatda qulay hayot yo'lini tanlagani, "qoliplangan roman" murakkab labirint kompozitsiyada tasvirlanadi, (ya'ni, ko'plab hikoyalar), bu dunyoviy sivilizatsiya darsligiga aylandi⁷.

"Quyi barokko" romani bu davrda maxsus "amalgam" tendensiyalarini namoyon qiladi: bu janr modifikatsiyasida munozara pafosini saqlagan holda, Tristan l'Ermit va Skarron romanlari fabulasini hamda "yuqori" motivlarini o'z ichiga oladi, sahnalar va antinomik roman tuzilishining boshqa elementlarini har doim ham parodiya qilavermaydi, lekin ba'zan bevosita ulardan foydalanadi.

Fransiyadagi adabiy jarayonning keyingi bosqichi xususiyatlari tahlil qilinsa, 1634- yilda tashkil etilgan Fransuz Akademiyasining ushbu davr madaniy hayotida - absolyutizmni yanada mustahkamlash, kardinal Rishle fikriga ko'ra, birinchi navbatda, adabiy til me'yorlarini tartibga solish, normativ klassik estetikaning nazariy rivojlanishi, zamonaviy adabiyotni tanqidiy muhokama qilish kabilar edi. Bu faoliyat ayniqsa, dramaturgiya sohasida klassisizmni mustahkamlashdagi umumiy jarayonning ajralmas qismidir.

Bu jarayonda P.Kornel dramaturgiyasining qanday rol o'ynashini tushunish lozim. Dramaturg ijodini tahlil qilish jarayonida, uning poetikasi tadrijiga,

⁶Мольер. Собрание сочинений в четырех томах. Т. II. – М. – Л.: Изд. "Асакнта" 1936. – С. 366.

⁷<http://17v-euro-lit.niv.ru/17v-euro-lit/pahsaryan-17-18v/francuzskaya-literatura-xvii.htm>

“birinchi” va “ikkinchi” holati harakat tarzining o‘ziga xosliklariga, hamda Kornel klassik nazariyasining akademik talablariga xos bo‘lgan munosabatiga e‘tibor berish foydalidir.

She‘riy qisqa hikoyalar, ertaklar va afsonalar muallifi Lafonten ishi bilan tanishish ham muhimdir. Lafonten masalda satirik-axloqiy va she‘riy birlashtirilganligini tahlil qilishga harakat qilingan, qadimgi va klassik adabiyotda afsonalarning janriga oid qiziqarli kuzatuvlarni o‘z ichiga olgan klassik shoir (L.Vigotskiyning qadimgi va mumtoz adabiyotdagi ertak janri haqida qiziqarli kuzatuvlarni o‘z ichiga olgan “San‘at psixologiyasi” kitobi bunga o‘z o‘rnida katta ko‘mak beradi.)⁸. Bundan tashqari bu davrda klassik prozaning turli janr spektrlari haqida bilish kerak edi: bu maksimum (Laroshfuka), xat (madam de Sevinye), xotiralar (Laroshfuko, de Rets), garchi umumiylik uchun klassisizmning aniq ustunligi, aforistik aniqlik va ifoda lakonizmi axloqiy aforistik prozani birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Plyadaning dastlabki rivojlanishi XVII asrda va keyingi o‘zgarishlari XVIII asr va XIX asrning boshlarigacha davom etgan. Bu adabiy yo‘nalish Oblomiyevskiyning ishlarida o‘z tarixiga ega bo‘lganligi tufayli vaqt o‘tishi bilan shakllanib ko‘p rejali va ko‘p aspektlilikini ko‘rsatadi. Bir qancha muhim kuzatishlar natijasida XVII asr teatri psixologizmi haqida shunday xulosa chiqardi, unda ko‘plab “ ritorik” elementlarni yangicha talqin qilish mumkin. D.D. Oblomiyevskiyning fikriga ko‘ra, klassisizm “moddiy dunyoni uning tasvirlaridan yo‘q qildi, sub’yektiv dunyoni, inson qalbi olamini aks ettirdi, bu esa ko‘p jihatdan ob’yektiv voqelikdan mustaqil va izchil”⁹ edi .

XVII asr fransuz klassisizm davri adabiyotini chuqur tahlil qilgan D.D. Oblomiyevskiy dramaturgiyada, teatr psixologiyasida qahramonlar olamiga sub’yektiv voqelikni singdirish bilan birga har bir qahramonni qalbini ikki va undan ortiq qarama-qarshi turuvchi sifatlar bilan to‘ldirgan.

Dramatik asarlarda personajlarning ichki olami faqatgina harakat orqali emas, balki so‘z orqali ham ifodalangan. Bundan tashqari, fransuz klassisizmi monografiyasi muallifi XVII asr fojiali personajini davomiyligi va bir maromdaligiga ishonch hosil qilish uchun ko‘rib chiqadi. Uning ta’kidlashicha, bir qahramon qalbida ikki yoki undan ortiq qarama-qarshi intilish va sifatlarning mavjudligini, personajlarining ichki dunyosi tub-tubidagi harakatlarini dramaturg asoslab beradi. D.Oblomiyevskiy klassik merosni avvalgi va keyingi davrlardagi fransuz adabiyotining rivojlanishi kontekstida tekshiradi, XVII asr poetikasini idrok etishda muhim kashfiyotlar qiladi¹⁰.

Shu bilan bir qatorda Kornel, Rasin, Molyer, Lafonten asarlari ko‘pincha buyuk ijod namunalari sifatida o‘rin olgan, lekin “kimningdir vaqti o‘tdi”. Yevropa va rus romantizmi ba’zi nazariyachilarining fikriga ko‘ra, klassik san‘at absolyutizm davri uchun “sobit” bo‘lib qoldi, uning poetikasi XVII asr bilan birga tugadi. Kornel va Rasinning fojialari “san‘at qonunlari bilan bog‘langan” deb e‘lon

⁸ Бордонов Ж. Мольер. – М., 1983. – 415 с.

⁹ Писатели Франции. – М., 1964. – С.45.

¹⁰ Андреев М. Л. Второе рождение европейской драмы // Проблема жанра в литературе средневековья. – М., 1994. – С. 29.

qilindi, uzoq vaqtdan beri teatr tomoshabinlariga qaratilgan va qayta ko'rib chiqishni talab qiladigan dramatik ko'rinishlar (G. Geyn, A. Giro, V. Gyugo, Rossiyada - V. G. Belinskiy risolalarida) tasvirlangan.

Aynan shu nuqtai nazar bilan qaralganda XIX asr oxiri – o'tgan asr boshlaridagi rus va fransuz tanqidiy maktablarida ko'proq aks etgan.

Rasin ham Kornel kabi Fransiya klassisizm davri adabiyotida buyuk tragedik asarlar ijodkori edi. Ammo Rasin o'zining ajoyib o'tmishdoshi bilan taqqoslaganda fransuz klassisizmi fojiasining rivojlanishidagi yangi bosqichni anglatadi.

Bundan tashqari, Kornel adabiy faoliyatining so'nggi davri bir so'zli yoshroq zamondoshlari bilan yakka kurashga aylandi. Bu ikkala dramaturgning ijodiy qiyofasida sezilarli farq (alohida belgilari va ko'pgina muhim jihatlarining o'xshash xususiyatlari) mavjud¹¹.

XVII asr fransuz dramaturglari haqida Pikar o'zining biografik faktlarini, Lyudovik XIV hukmronligining tarixiy sharoitlarini va kvazi-adabiyoti omillarini ko'plab izlanishlarida kengroq tahlil qilish jarayonida, Rasin ijodini aniq bir tarixiy davrga "bog'laydi", uni kengroq doiraga chiqishga imkon bermaydi. "Yangi tanqid", "universitetlik"lardan farqli o'laroq, tadqiqotchiga noan'anaviy metodologiyadan foydalanish huquqini berdi¹².

Umuman olganda Yevropa adabiyotida ham turli xil janrlar istilohi jarayonida, har-xil yondashuvlar ilgari suriladi. Shuningdek, klassisizm davri adabiyoti bir necha davrlarga xos xususiyatlarni o'z ichiga qamrab oldi.

Mashhur olmon adabiyotshunosi Uve Shpyurel fikriga ko'ra, "Janr atamasi – nafaqat umumiy ma'no kasb etadi, balki alohida mazmunga egaligi bois ham muammoli hisoblanadi. Janrning uchga bo'linishi uning eng asosiy xususiyatidir"¹³.

Klassisizmga oid rus ilmiy adabiyoti dramaturgiya janriga mansub matnlarga bo'lgan turli xil yondashuvlari va talqinlari bilan alohida ajralib turadi, bu esa ko'plab muhim kashfiyotlar paydo bo'lishiga yo'l beradi. Ushbu kashfiyotlarning tabiati asosan rus ilmiy an'alarining o'ziga xos xususiyatlarini fransuz yozuvchisi merosini o'n yil davomida o'rganish natijasida yuzaga kelganini aniqlaydi.

Rasin ijodi doirasidagi dastlabki ilmiy ishlanmalar Rossiyada XIX asr oxirida yuzaga kelgan. Aynan, bu G'arbiy Yevropa adabiyoti tarixi bo'yicha o'quv qo'llanmalarining ayrim qismlari va dramaturgning rus tilidagi tragediyalari nashrlarining so'zboshisi edi. Bular orasida eng diqqatga molik asarlar qatoriga P.S.Kogan, S.Pinus, V. Friche, A. Shaxov asarlari kiradi¹⁴.

Fransiyada bo'lgani kabi, Rossiyada ham klassisizm adabiyotiga qiziqishning yangi to'lqini 1960-yillarda paydo bo'ldi¹⁵. Yu.B.Vippening XVII asr fransuz

¹¹Виппер Ю. Б. Творческие судьбы и история. (О западноевропейских литературах XVI - первой половины XIX века). - М., 1990. - С. 183-194.

¹² Picard R. De Racine au Parthenon. Essais sur la littérature et l'art à l'âge classique. - P., 1977. Picard R. La carrière de Jean Racine. - P., 1956. – P. 223.

¹³Uwe Spörl. „Basislexikon Literaturwissenschaft“. 2. Auflage. Verlag Schöningh. - Paderborn, 2004. - S.141.

¹⁴Краткая литературная энциклопедия: В 9-ти тт. М., 1975. - Т.8. Краткая литературная энциклопедия: В 9-ти тт. - М., 1978. - Т.9. Кржевский Б. А. Театр Корнеля и Расина //Статьи о зарубежной литературе. -М., – Л., 1960.

¹⁵Виппер Ю. Б. Формирование классицизма во французской поэзии нач. XVII века. - М., 1967.

teatri va she'riyati poetikasining umumiy masalalariga bag'ishlangan ko'plab ishlari paydo bo'ldi. B.A.Krjevskiy va N. A.Sigal o'z tadqiqotlarini Kornel va Rasin dramaturgiyasini o'rganishga bag'ishlaydilar¹⁶. Rus adabiy tanqididagi eng muhim bosqichlardan biri bu D.D.Oblomiyevskiyning "Fransuz klassisizmi" monografiyasi¹⁷. Muallif ushbu mavzu bo'yicha to'plangan tadqiqot tajribasini umumlashtiradi va o'zining bu boradagi haqiqiy tushunchalarini ilgari suradi. Shuningdek, XVII asr adabiyoti monografiyasini Fransiyaning avvalgi boy an'analari bilan bog'laydi. D.D.Oblomiyevskiy klassik tendensiyalarning kelib chiqishini estetik asoslardan izlaydi.

Asosan adabiy tanqidlarga e'tibor qaratiladigan bo'lsa Kornel o'z ijodida juda ko'plab holatlarda klassisizm adabiyotining uch birlik qoidalariga amal qilmasligi borasidagi bahslar kuzatiladi. Bu uning ushbu qoidalarni bilmasligida emas edi, ammo Kornelga bu borada keragidan ko'proq ayblovlar keltirilgan.

D.S. Lixachevdan boshlab to A.V.Mixaylovagacha bir qancha rus tadqiqotchilari "Klassisizm barokkoni almashtirish uchun emas, u bilan yonmayon turish uchun kelgan degan fikrlarni bildiradi. Albatta bu intellektual rivojlangan, ongli shaxsning dunyoni turli xil uslubiy tizimlarda, shuningdek, uning qobiliyati turli tarixiy qatlamlarda yangicha qarashlariga asoslanib idrok etish uslublarining rivojlanish bosqichlari xususiyatlaridan biridir"¹⁸. A.V. Mixaylovning fikriga ko'ra "Barokko va klassisizm, bu qo'shni madaniy qatlamlar (agar o'zining maxsus ichki tuzilishiga ega bo'lgan asosiy bitta qatlam bo'lmasa) ichki jihatdan ajoyib tarzda har xil qurilganligini aytish mumkin"¹⁹.

Jan Rasin ijodiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar orasida ularning aksariyati dramaturg asarlarining o'ziga xosligi va uning ma'lum bir an'anaga sodiqligi muammosini ko'taradi. Adabiyotshunoslar, ma'lum bir ilmiy maktabga mansubligiga qarab, Rasinning adabiy merosini turli xil jihatlarini ko'rib chiqadilar. XIX asr oxirlaridagi ishlarga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, unda asosan XVII asrda jamiyatni boshqaruvchi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarni aks ettiruvchi tragediyalarning aynan poetikasiga yo'naltirilgan barqaror tendensiyasi mavjud. "Agar har qanday yozuvchi o'z davrining dahosini to'la ifoda eta oladigan darajaga yetsa, unda faqatgina ularga uning o'zi egalik qiladi; ommaviy his qilish usuli va uning xususiy his qilish usuli o'rtasida aniq o'xshashliklar mavjud"²⁰, deb yozgan edi.

I.Ten Jan Rasin asarlariga o'zgacha hayot bag'ishlaydi o'sha muhitning o'ziga xos xususiyatlarini yetkazish uchun imkon beradi. Sababi "na o'sha ijtimoiy muhit haqida va na insonlar hayoti haqida hikoya qiladi, aynan dramatik asarlarda uning hayoti qanday bo'lsa, zamoni haqidagi fikrlar ham xuddi shunday bo'lgan"²¹.

¹⁶Левро Л. Драма и трагедия во Франции. - Пг.-М., 1919. – С. 155.

¹⁷Писатели Франции. - М., 1964.

¹⁸Лихачев Д.С. Поэзия садов. - М.: Наука, 1982. - С.83.

¹⁹Михайлов А.В. Проблема анализа перехода к реализму в литературе XIX века // Михайлов А.В. Языки культуры. - М.: Языки русской культуры, 1997. - С.60.

²⁰Хализев В. Е. Функция случая в литературных сюжетах //Литературный процесс. - М., 1981. – С. 189.

²¹Хализев В. Е. Функция случая в литературных сюжетах //Литературный процесс. - М., 1981. – С. 199.

XVII asr Fransiyasi - bu teatr asri, u asosan uchta nom bilan mashhur: Kornel va Rasin o‘z ijodlarini fojiaga, Molyer esa o‘z ijodini komediyaga bag‘ishlagan.

Ishning ikkinchi bobi **“P.Kornel dramaturgiyasining janr xususiyatlari”** deb nomlangan bo‘lib unda “Sid” tragikomediyasi qahramonlarining xalqparvarligi, “Gorasiy” tragediyasi qahramonlarining xalqparvarligi hamda “Sid” va “Gorasiy” tragediyasi qahramonlari talqini tahlil qilingan. Shuni ta’kidlash lozimki, XVII asr adabiyotida dramaturgiya janri yetakchi rol o‘ynaydi. Aynan teatr o‘z davrining odamlarini boshqa janrlarga qaraganda ancha yuqori darajada aks ettirishga ega edi. Absolyutizmning shakillanish davri insonning monarxiya davlatchiligining tabiati haqidagi idealistik g‘oyalari, yuksak burch va sharaf tushunchalari, o‘z anarxistligi va ozodlikni sevuvchi tendensiyalari bilan Pyer Kornel teatri tomonidan yanada to‘liq va butunligicha ifoda etilgan. Ammo 50-yillardan boshlab buyuk dramaturg ijodiy inqirozni boshidan kechirdi.

Bu yerda gap faqatgina “Rodogun” da (Rodogune, 1644) muallifining yoshida emas, balki bu unchalik uzoq yillarni o‘z ichiga olmagan, inson xulq-atvorining o‘zgaradigan darajadagi vaqtni qamramaganligini ko‘rish mumkin. Monarxga butun davlat manfaatlarini ifodalovchi vakil sifatida berilgan idealar va umidlar hayot sinovidan o‘tmadi. Kornel o‘z ichki kechinmalari bilan, abadiy Versal va yangi davr uchun begona bo‘lib qoldi. Agar uning birinchi uslubdagi spektakllari dunyoga, ishonchga asoslangan optimistik qarashi bilan ajralib tursa, unda oqilona boshlanish bo‘lsa, keyingi asarlarida dramaturgning tushkun kayfiyati seziladi, Frontdan keyingi davrda jamiyatda avj olgan vijdonsizlik va beadablikni his qilish mumkin. Va hattoki, aristokratik qo‘zg‘olon davrida ham Kornel oqsuyaklar orasida butunlay kutilmagan va bir-biriga yon berishga xos xatti-harakatlar, fitna va xoinliklarning kuchayishi, uchinchi toifa va davlat hokimiyati bilan munosabatlarda sinfiy xudbinlikka guvoh bo‘lgan.

Kornel insoning shuhratparasligi chegaralarini oldindan bilmaydi.

Hokimiyat uchun kurash – Kornel personajlari qiziqishining asosiy markazida turadi, toj esa – eng yuqori qadriyat, buning oldida hamma narsa qadrini yo‘qotadi, shu jumladan muhabbat ham.

Kornel qahramonlarida “ichki ikkilanish” yo‘q, ular “ichki zo‘riqish”larsiz burchini bajarishi shart, shu sababli Kornelda “voqelikda fojialar unchalik ko‘p emas”, deb takidlaydi V. Grib²². Ammo keyingi tragediya personajlari “Sid” va “Sinna” qahramonlarining xarakter yaxlitligini yo‘qotdilar. Kornel, shubhasiz, jamoat muhitida, jamiyat kayfiyati va qarashlarida o‘zgarishlarni his qildi, “alohida shaxs”ning ayrim qiziqishlar sohasiga kirish istagini, uning hozirgi zamonda foydasiz va hatto xavfli bo‘lib qolgan fuqarolik fazilatlarida ham befarqlikni his qildi. Dramaturg bu burilish zamondoshlari ongida o‘z aksini topganini ifodaladi. Keyingi tragediyalarida endi burch va shaxsiy tuyg‘ular borasida kurashish bilan shug‘ullanmaydi, balki juda yuqori ijtimoiy mavqeni egallagan shaxslarning shaxsiy manfaatlarini aks ettirganiga duch kelish mumkin.

Kornelning eng yaxshi asari “Sid” poeziyasi (tragikomediya, bu “baxtli yakun bilan fojia” degan ma’noni anglatadi – klassisizmga qabul qilinmagan aralash

²²Гриб В.Р. Указ. соч. - С. 23.

janr). Uning syujeti O'rta asrlardagi Ispaniya dostonidan olingan, ammo tasvirlar va muammolar XVII asrning fransuz hayotini aks ettiradi.

Spektakl qahramonlik pafoslariga boy. Bir-birlarini yaxshi ko'radigan Rodrigo va Ximena bunday vaziyatda otalarining g'ururi oldidagi burchi sababli kurashadilar. Ikkalasi ruhiy mojarosi katta kuch bilan ifodalanadi ayniqsa Rodrigoning mashhur monologida birinchi voqeaning VI sahnasi.

Que je sens de rudes combats !

Contre mon propre honneur mon amour s'intéresse :

Il faut venger un père, et perdre une maîtresse.

*L'un m'anime le coeur l'autre retient mon bras.*²³

(Acte 1, Scene VI. p. 19)

Ma'nosi:

Men ichki urushni his qilayapman!

Sha'nimga qarshi o'z sevgim turadi:

Ota uchun shafolat qilish, sevgilisidan voz kechish!

Biri yuragimni jonlantiradi, boshqasi qo'limni ushlaydi.

(Tarjima bizniki X.A.).

Rodrigo va Ximena qurbon qilgan sevgi buyuk qahramonlik tuyg'usi sifatida tasvirlangan. Ularning har biri shunday qurbonlikka rozi, shu sababli o'z o'limlarini orzu qilar edi. Ulug'vorlik shu bilan birga, qotillikdan so'ng ularning uchrashuvi manzarasini tasavvur qilish mushkil, bu ularning birgalikdagi hayot yo'liga to'siq bo'ladi. Ikkalasi ham o'zlarining shafqatsiz burchlaridan bir lahza ham voz kechishmas edi, aksincha hayrixohlik bilan o'zlarining insoniy dardlarini izhor qilar edilar. Bu yerda buyuk qahramonlik ifodalangan, chunki sevgining o'zi og'ir talablar qo'yadi, uning o'zi zaiflik va sharmandalikka dosh berolmaydi. Rodrigo Ximenaga tushuntirishicha, uning ichki munozaralari oila oldidagi burchini o'z foydasiga hal qilishga undaydi.

Que malgré cette part que j'avais en ton âme,

*Qui m'aime généreux me hairait infâme ;*²⁴

(ActeIII, sceneIV, p. 55.)

Ma'nosi:

Bu sizning qalbingizda bor bo'lganligiga qaramay,

Asosiysi meni sevgan, mendan nafratlanadi;

Ximena bunga javoban Rodrigoga shunday dedi:

*Je me dois, par ta mort, montrer digne de toi*²⁵.

(Acte III, scene IV, r. 56.)

Ma'nosi: *Siz o'limga loyiqsiz.*

Ijtimoiy davlat prinsipi bu pyesaning barcha qahramonlari tomonidan qo'yilgan insonga bo'lgan yuqori talablar asosida yotadi. Or-nomus g'oyasi yangi soyani egallaydi:

insonning obro'si, uning qadr-qimmat, avvalambor, uning davlat va qirol oldidagi xizmatlari bilan belgilanadi. Monarxiya davlatning timsoli sifatida tasvirlangan.

²³Pierre Corneille. Le Cid. PDF version Ebook ILV 1.4 (décembre 2009). – P. 19.

²⁴Pierre Corneille. Le Cid. PDF version Ebook ILV 1.4 (décembre 2009). – P. 55.

²⁵Pierre Corneille. Le Cid. PDF version Ebook ILV 1.4 (décembre 2009). – P. 56.

Biroq, vatanparvarlik g'oyasi pyesada o'zining milliy ma'nosida namoyon bo'ladi: dushmanlarni mag'lubiyatga uchratgan Rodrigoning shon-sharafini birinchi navbatda xalqning o'zi e'lon qiladi. Pyesa nemislar va ispanlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash bilan bog'liq bo'lgan fransuz xalqining milliy qo'zg'olonini aks ettiradi: u eng qiyin vaziyatlarda yaratilgan Rodrigo burch va or-nomusga sadoqatli, vatanni himoya qilishda eng mushkul ishlarni bajaradigan vatanparvar va sevgi uchun o'lishga tayyor bo'lgan ideal jangchi sifatida qahramondir.

“Gorasiy” tragediyasida Kornel birinchi marta qadimgi shoirlar va xronikachilar tomonidan sinovlarda qat'iyat, Vatanga sadoqat va har qanday azob va o'limni qo'rqmasdan qabul qilishga tayyorligi uchun taqsinga loyiq bo'lgan “Rim xarakteriga” murojaat qildi. Ammo u an'analarga yangi zamon dramaturgi sifatida yondashdi, u uchun “ehtiroslarning haqiqati, taxmin qilingan sharoitlarda hissiyotlarning maqbulligi”²⁶ muhimdir.

“Gorasiy” fojiasidagi voqealar tarixchi Tit Liviyning Rim haqidagi tarixidan olingan. Tit Liviy Tyul qirolligi davrida Rim bilan Alba Longa o'rtasidagi qarama-qarshiliklar haqida hikoya qilgan (Tyu Gostiliy miloddan avvalgi VII asr). Rimlik uch aka-uka Gorasiyning egizak o'g'illari, hamda Albaning uch egizak aka-ukalari ikki shaharning o'zaro kelishmovchiliklarini talofatlarsiz, shaharlarini vayron qilmasdan, ko'p qon to'kilmasdan chek qo'yish maqsadida jangga chiqishini ma'lum qiladi. Ikki shahar o'rtasida jang boshlanganida Gorasiylarning ikkitasi jang boshidayoq vafot etadi. Shundan so'ng omon qolgan bittasi ortga qaytgandek harakat qiladi. Ortidan kelayotgan Kurasiylarni birma-bir o'ldiradi va Rimga g'alaba keltiradi²⁷.

Aytish mumkinki, Gorasiy asari kitobxonlar tomonidan tez-tez o'qilgan - masalan, Jorj Kutonning fikriga ko'ra 27-ushbu asar butunlay absolyutizmga va hokimiyatga xizmat qilish uchun yozilgan²⁸. Karl Shmitt²⁹ dan so'ng, Mishel Fuko ushbu klassik tragediyani “ommaviy huquq fanidan dars”³⁰ sifatida qo'lladi. Ushbu satrlarda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Kornel avlodlar tomonidan vasiyat qilingan saboqni sezilarli darajada yashirgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, u respublikani teatr amaliyotida va uni qabul qilish, uzatish jarayonida qandaydir ma'noda jonlantirish uchun arvoqga aylantiradi.

Ta'kidlash lozimki, ulardagi ikki xil sentimental holat mos kelmaydi, bu o'rinda Rimni saqlab qolish uchun Kamillaning sevgilisi o'lishi kerak edi. Bundan tashqari, uning nafrati kuchliligini ko'rsatish uchun Rimni jonlantirish, yani shaharni jonli obraz kabi tasvirlash lozim: Rim insonga aylanadi, bu esa Gorasiyning ushbu shaharga bo'lgan sevgisini yanada kuchliroq ifodalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, u “u” kishilik olmoshi orqali bir necha bor eslatib o'tilgan. Masalan, “u” go'yoki Rimni tirik inson kabi qabul qilib, Gorasiyni sevgilisini o'ldirgani uchun ulug'lashi lozim edi. Bunday holatda, Kamilaning ruhiy azobi,

²⁶ Пушкин А.С. Полн. Собр. Соч.: В 10 т.Т. 7. – М., 1958. - С. 213.

²⁷<https://www.cosmovisions.com/textHorace.htm>

²⁸“Notice” d'Horace, éd.cit. -P. 1546-1548.

²⁹ Schmitt C. Hamlet ou Hécube. –Paris: L'Arche, 1992.- P. 104-106.

³⁰ Foucault M. Il faut défendre la société. – Paris: Gallimard, 1976. - P. 155-15.

uning aytgan soʻzlari shafqatsizligi sababli deb koʻrsatadi, aslida aynan mana shu zoʻravonlik uni Rimga xavfli dushmanga aylantiradi. Shunday qilib, xuddi shu zoʻravonlik tufayli Gorasiy uni oʻldirishi lozim boʻladi.

L'ennemie de Rome qui doit mourir

Ma'nosi:

O'lishi kerak bo'lgan kishi Rimning dushmani

Parcha Gorasiyning ogohlantirishlari bilan boshlanadi:

Crois-tu donc que je sois insensible à l'outrage,

Que je souffre en mon sang ce mortel déshonneur ?

Ma'nosi:

Nahotki ishonasanmi, men haqoratga beparvo bo'lsam,

O'z qondoshimni o'ldirishdan azob chekmaydigan diyonatsizmanmi?

Gorasiy singlisini oʻz gaplari bilan ogohlantiradi va uni gʻoliblar tomoniga oʻtishga undaydi:

Aime, aime cette mort qui fait notre bonheur,

Ma'nosi:

Sevgi, sevgi bu bizning baxtimiz uchun o'ldi,

(Tarjima bizniki X.A.).

Kamillaning nafratini nutqidagi raqamlar, butun yer yuzini tasavvurga keltiruvchi soʻzlar bilan yanada kuchaytiradi, bunda muallif giperbolani qoʻllaydi:

Et si ce n'est assez de toute l'Italie,

Que l'Orient contre elle à l'Occident s'allie;

Que cent Peuples unis des bouts de l'Univers

Passent pour la détruire, et les monts, et les mers!

Ma'nosi:

Va agar bu butun Italiya uchun yetarli bo'lmasa,

Sharq va G'arb unga qarshi birlashsin;

Butun Olamning yuz millati birlashsin.

Uni, yo'q qilish uchun tog'lar va dengizlar harakatlansin!

(Tarjima bizniki X.A.).

Kamilaning soʻzlariga koʻra, Gorasiy singlisi haqidagi tasavvurini oʻzgartiradi. Garchi sharhlangan qismning boshida u hali ham “qon” haqida gapirsa-da, yaʼni u hali ham uni singlisi deb biladi va uni fikrini oʻzgartirishga majbur qilmoqchi boʻladi, uning soʻzlari va istaklarining shafqatsizligi oxir-oqibat uni dushman deb bilishga majbur qiladi

Ainsi reçoit un châtement soudain

Quiconque ose pleurer un ennemi romain!³¹

Ma'nosi:

Shunday qilib to'satdan jazo olish mumkin

Motam tutishga jur'at etgan har bir kishi Rimning dushmani!

“Quiconque” “Kim” Kamilning akasining koʻz oʻngida yangi aniqlanmagan maqomini tasdiqlaydi: bundan tashqari Kamila Gorasiyning singlisi boʻlsa, kim

³¹Pierre Corneille. Horace. 1640. (extrait). – p. 44. <https://www.superprof.fr/ressources/francais/francais-2nde/theatre-comique-tragique.html>.

g'amxo'rlik qiladi, u Gorasiyning singlisi bo'lishidan qat'i nazar, u avvalambor Rimning dushmani, chunki u "Rim dushmaniga motam tutish"ni to'xtatishni rad etgan.

Gorasiyning singlisi Kamillaga bo'lgan munosabati pyesadagi ayollar va erkaklar obrazidagi xarakterlarga bo'lgan ikki xil qarashlar tahliliga e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Pyesadagi asosiy voqealar rivojini kuchaytiruvchi sahnalar ayollar obrazi ishtirokida boradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**J.Rasin dramaturgiyasida burch va muhabbat muammosi**" J. Rasinning "Fedra" tragediyasida antik davr an'analari, "Fedra" tragediyasi qahramonlari taqdirida mifologik talqin va "Andromaxa" tragediyasida burch va muhabbat muammosi tahlil qilingan. Buyuk fransuz dramaturgi Jan Rasin (1639-1699)ning "Fedra" tragediyasi ilk marotaba 1677-yil 1-yanvarda Burgund otelida sahnaga qo'yilgan. Dramaturg ijodiga e'tiroz bildiruvchi shaxslar fikrlariga ko'ra birichi bor pyesa past baholandi. Asta-sekin o'sib kelayotgan avlod tomonidan "Fedra" J.Rasinning eng e'tiborga molik tragediyalaridan biri deb hisoblandi. J. Rasinning "Fedra" tragediyasi XVII asr fransuz dramaturgiyasining noyob durdonalaridan deb sanaldi. J. Rasin ijodi tadqiqi dunyoning ko'p tillarida mavjud, asosan fransuz tilida uning ijodini turli aspektlarda o'rgangan. Bu badiiy ijoddagi muammolarning keng kamrovliligi zamonaviy tadqiqotchilarning oldida hali yechimini topmagan muammolar borligini ko'rsatadi.

Bo'lajak ijodkorning "Andromaxa" va "Fedra" asarlari dramaturgni yuksaklikka ko'tarilishiga sabab bo'ldi, bularning hammasi uning oldiga murakkab vazifalarni qo'ydi, ya'ni eng muhimi syujet tanlash masalasi.

